



«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki
Joint-stock commercial bank «Microcreditbank»
Акционерно-коммерческий банк «Микрокредитбанк»

100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani
Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy

Tel.: +998 71 207 46 51 (1104), Aloqa markazi: 1285

E-xat: mikrokreditbank@exat.uz www.mkbank.uz

BUYRUQ

«16» aprel 2024 y.

№ 23

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi hamda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvining 2023-yil 16-avgustdagi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 115-1-sonli qaror bilan tasdiqlangan Nizomining 8-bandiga asosan, Bank Boshqaruvi tomonidan 2023-yil 22-iyunida tasdiqlangan 60-sonli Buyruqqa o'zgartirish kiritish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha Xarid komissiyasining yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha komissiya raisi etib Boshqaruv raisi o'rinbosari I. Djumaniyazov tayinlansin.

3. Boshqaruv raisi o'rinbosari vaqtincha ishda bo'lmagan davrda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruv raisi hamda uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalar taqsimotiga asosan vazifa bajaruvchi Boshqaruv raisi o'rinbosari Xarid komissiyasiga raislik qiladi.

4. Komissiya a'zolaridan biri vaqtinchalik ishda bo'lmagan (mehnat ta'tili, ishdan bo'shagan va h.k) davrda uning vazifalarini tarkibiy tuzilma o'rinbosari (vaqtincha vazifasini bajaruvchi (v.v.b yoki v.b)) bajaradi.

5. Ichki audit va Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentlari ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kuzatuvchi sifatida Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilsin, hamda tanlash/tender xaridlari bo'yicha kelib tushgan takliflarni bir-biriga affillanganligi shuningdek, bankka aloqadorligi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazorat Boshqaruv raisi o'rinbosari **I. Djumaniyazov** zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi v.b



O.Butayev

Kelishuvchilar: M.Toirov, S.Salamov, J.Sagdullaev, M.Pulatova, I.Mamadjanov, B.Allaniyazov, A.Xamidov, I.Djumaniyazov, A.Mustafayev

<https://collective.mkb.uz/hujjat/doc.jsp?id=ee8ad35f-a80f-45ef-b6ed-55a4b5e7a55f&pin=ICwqdPQ1>